Jarrohlik va urologiya kafedrasi
Kafedra mudiri tibbiyot fanlari doktori, professor Nishonov Fozil Nishonovich

Ish vaqti: 7:30 – 17:00 Tel. raqami: +998934255551

Kafedra sayti: http: adti.uz// Jarroxlik va urologiya/.
Kafedra elektron manzili: jarroxlik@umail.uz

Jarrohlik va urologiya kafedrasi ADTIning eng namunali kafedralaridan biri hisoblanadi. Kafedra bazasi ADTI klinikasining 3-Jarrohlik va urologiya bo‘limlarida joylashgan bo‘lib, aholiga rejali va shoshilinch tibbiy yordamini ko‘rsatib kelmoqda. Kafedrada “Davolash ishi”, “Kasbiy ta’lim” fakultetlarining talabalari hamda “Jarrohlik” “Urologiya” mutaxassisligi bo‘yicha magistratura talabalari, klinik ordinatorlar tahsil oladilar.

KAFEDRA TARIXI

Профессор
А.Я. Ясногородский
(1956-1969 йй.).

Institutda Jarrohlik kafedralarini tashkil etilishi ukrainalik taniqli olim, mashhur jarrox Aleksandr Yakovlevich Yasnogorodskiy (1956 y.) nomi bilan bevosita bog‘liqdir. A.Ya. Yasnogorodskiy viloyat shifoxonasida Jarrohlik kafedrasini tashkil etish va Jarrohlikni ilmiy va amaliy rivojlantirish maqsadida taklif etilgan. U Jarrohlik kafedrasini tashkil etish bilan birgalikda atrofiga qobiliyatli shogirdlarni to‘plab, Andijon Jarrohlik maktabiga asos soldi.

O‘zbekistonda va sobiq ittifoqda taniqli yetuk jarroxlar professor Ibadov I.Yu., dotsentlar Alimov T.U., Jaxongirov M.X., Udachina N.A., Grigoryans S.A., Grigoryan N.A., Ishonxodjayev U.A., Xakimov S.P., Zaxidov M.A., hamda boshqa ko‘plab amaliyotchi jarroxlar shu kafedradan yetishib chiqqan bo‘lib, o‘z faoliyatlari bilan Jarrohlikni ilmiy va amaliy jihatdan rivojlantirishga salmoqli hissa qo‘shganlar.



Профессор
И.Ю. Ибадов
(1969-1981 йй.).

A.Ya. Yasnogorodskiy vafotidan so‘ng kafedraga professor I.Yu. Ibadov 1969-1981-yillar davomida rahbarlik qilgan. Keyinchalik kafedra ADTI klinikasining III-Jarrohlik bo‘limiga ko‘chib, «Gospital Jarrohlik» kafedrasi deb nomlangan.
Serqirra faoliyati davomida u o‘zini mohir jarroh, zaxmatkash olim, chuqur bilimli klinitsist hamda o‘z shogirdlari qalbida insonparvarlik va hamdardlik tuyg‘ularini uyg‘ota olgan iqtidorli pedagog sifatida namoyon etdi.

Профессор
Р.М. Нурмухаммедов
(1981-1988 йй.).

1981-yildan kafedra mudiri etib professor R.M. Nurmuhamedov tayinlandi. Professor R.M. Nurmuhammedov institutimiz rektorlik lavozimida ishlash bilan birga, o‘quv jarayoniga butunlay boshqacha uslubiy yondoshdi. Kafedra xodimlari taniqli olim atrofida jipslashdi. Kafedra xodimlarining ilmiy izlanishlariga katta yo‘l ochildi. Murakkab tashrix turlari amaliyotga kiritildi. Farg‘ona vodiysida birinchilardan bo‘lib kafedra bazasida klinikada yagona endoskopiya markazi (1981y.), lazer nurlaridan foydalanish markazi (1988y.), va endoJarrohlik markazi ochilgan.

Профессор
Р.Ю. Омиров
(1988-1992 йй.).

1988-1992-yillarda kafedraga professor R.Yu. Omirov rahbarlik qildi. Professor R.Yu. Omirov ilmiy faoliyati serqirra bo‘lib, ko‘plab xirurgiya muammolarini qamrab olgan. Uning 400 dan ortiq ilmiy maqolalarida, monografiyalarida va uslubiy qo‘llanmalarida buqoq kasalligining xirurgik davolash masalalari, o‘t tosh kasalligi, siniqlarni tezroq bitkazish va keyingi yillarda ba’zi kasalliklarning immunologik talqini kabi dolzarb masalalar ko‘rib chiqilgan. Kafedra xodimlari bilan ilmiy tadqiqot ishlarini samarali olib borish professor faoliyatida asosiy o‘rinni egallagan. Olim faoliyati davomida 3 ta doktorlik va 30 dan ortiq nomzodlik dissertatsiyalari himoya etilgan.

R.Yu. Omirov nafaqat yetuk olim, balki usta jarroh, chuqur bilimli klinitsist hamdir. Uning toza qalbi va xassos qo‘lidan davo topgan umrbod minnatdor odamlar sanoqsiz. “Sog‘liqni saqlash a’lochisi”, “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan shifokor” unvonlari fikrimizga dalildir.

Профессор
Ф.Н. Нишонов
(1993-2013 йй.).

1993-2013 -yillarda esa kafedrada professor F.N. Nishonov mudir lavozimida faoliyat ko‘rsatdi. U o‘z faoliyati davomida ko‘plab shogirdlarni tarbiyaladi, yosh olimlarni yetishib chiqishiga katta imkoniyat yaratdi. Professor F.N. Nishonov rahbarligida o‘nlab nomzodlik va doktorlik ishlari Respublikada hamda Rossiya Federatsiyasining nufuzli dargohlarida himoya etildi. Respublikada “professor F.N. Nishonov maktabi” ni yaratdi. Uning shogirdlari hozirda ham Respublikamizning barcha viloyatlarida faoliyat olib

bormoqdalar. Professor F.N. Nishonov kafedrada faoliyati davomida ilmiy-tadqiqot ishlari bilan birga o‘quv jarayoniga va uni rivojlanishiga jiddiy e’tibor berdi. Kafedrada tashkil etilgan talabalar ilmiy jamiyati a’zolaridan Respublika fan olimpiadasi qatnashchilari faxrli o‘rinlarni egalladilar, ular orasidan O’zbekiston Respublikasi “Prezidenti” va Ibn Sino nomidagi stipendiya sohiflari yetishib chiqdi.

2013 – 2017-yillar davomida kafedra mudiri etib professor F.N. Nishonovning shogirdi dotsent N.E. Bozorov tayinlandi. U o‘z faoliyati davomida ko‘plab shogirdlarni tarbiyaladi, yosh olimlarni yetishib chiqishiga katta imkoniyat yaratdi.

Urologiya kursi kafedraning tarkibida bo‘lib, ADTIning eng namunali kafedralaridan biri hisoblanadi. Urologik bemorlarga malakali yordam berish maqsadida hamda Andijon davlat tibbiyot instituting bazasi sifatida talabalarini o‘qitish uchun 1958-yilda Andijon shahar 1-shifoxona qoshida urologiya bo‘limi ochilgan. Urologiya kursini birinchi mudiri bo‘lib dotsent Ginzburg Leonid Abramovich bo‘lgan.

1963-yili urologiya kursi mudiri qilib dotsent K. Umarov tayinlangan. 1964 yildan fakultativ xirurgiya kafedrasida urologik kurs mudiri bo‘lib dotsent Axmedjayev U.X. tayinlangan. Kafedra mudiri bo‘lib tanlov orqali professor Xolmatov O.X saylandi.

Shahar shifoxonasidagi urologiya bo‘limi avval 15 koykaga ega bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik 30 koykaga kengaytirilgan. Bo‘limda yuqori va pastki siydik yo‘llarida va jinsiy a’zolarida bo‘lgan hamma operatsiyalar bajarilgan. Kattalar qatorida yosh bolalar operatsiyalari ham bajarilgan. Konsultativ urologik yordam faqat shaxar va viloyat miqyosida bo‘lmay balki Farg‘ona vodiysini hamma bemorlariga yordam berilgan.

т.ф.н., доцент Ў.А. Эшонхўжаев 1978-2000 йй.

1978-yili urologiya kursi rahbari bo‘lib Eshonxo‘jayev O‘.A. tayinlangan. Qisqa muddatga urologiya kursi, urologiya kafedrasi bo‘lib, shu vaqtda urologiya kafedra mudiri bo‘lib dotsent Eshonxo‘jayev O‘.A. xisobdangan. 1973-yil aprel oyida urologiya kursi yangi ochilgan ADTI klinikasiga o’quv baza hisobida o‘tkazilgan. Urologiya bo‘limi 60 koykaga kengaytirilib butun Farg‘ona vodiysi aholisiga urologik yordam berish vazifasi yuklatilgan.

Урология курси мудири, профессор А.Қ. Шадманов

2000-yildan boshlab urologiya kursiga t.f.d. professor A.Q.Shadmanov rahbarlik qilib kelmoqda. Professor A.Q.Shadmanov tashabbusi bilan 2005-yilda urologiya kursiga klinik ordinatura bazasi ochildi, 2007 yilda esa magistratura o‘quv bazasi tashkil qilindi va “professor A.Q.Shadmanov maktabi”ni yaratdi. Hozirgi kunda urologiya kursida yetuk urolog shifokorlar tayyorlanib Farg‘ona vodiysi aholisiga malakali urologik yordam ko‘rsatilmoqda. Uning shogirdlari hozirda ham Respublikamizning barcha viloyatlarida faoliyat olib bormoqda. Professor A.Q.Shadmanov kafedrada faoliyati davomida ilmiy-tadqiqot ishlari bilan birga o‘quv jarayoniga va uni rivojlanishiga jiddiy e’tibor berdi. Kafedrada tashkil etilgan “Urologiya” to‘garagi va talabalar ilmiy jamiyati a’zolaridan Respublika nufuzidagi fan olimpiadasi qatnashchilari faxrli o‘rinlarni egalladilar, Urologiya bo‘limida tashkil qilingan “Endourologiya bo‘limi”ni rivojlanib taraqqiy etishida ilmiy xamda amaliy yordam ko‘rsatib Respublikada nufuzli bo‘limlar qatoriga olib chiqdi. Hozirda bu bo‘limda barcha endoskopik tashrixlar amalga oshirilmoqda.

Доцент Маматов Б.Ю.

Anesteziologiya-reanimatologiya kurs mudiri bo‘lib dotsent M.M. Otaboyev boshqargan. Shu yillarda Yu. Dusmatov assistentlik lavozimida ishlab kelgan. 1975-yil M.A. Maxmudjanov assistentlik lavozimida ishlab 1978 yilda «Reovazografiya v dinamike i otsenke lecheniya zabolevaniy ven nijnix konechnostey» nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan. 1979-1981-yil mobaynida kafedra mudiri lavozimida dotsent Udachina N.A. faoliyat olib borgan. 1983 yildan 1999-yilgacha kafedra mudiri lavozimida dotsent M.A. Maxmudjanov ish olib bordi. Shu yillari kafedraning vakant lavozimlariga Djurabayeva T.B., Paxmurin I.R., Mamatov B.Yu., Melkumov L.A., Muminov B.E., Hamidov A.M., Mamadayev R.E. tayinlandilar. 1998-yilda Mamatov B.Yu.«Limfotropnaya pretraxealnaya antibiotikoterapiya v profilaktike i lechenii bronxolegochnых oslojneniy v posleoperatsionnom periode» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi va 200- yilda dotsentlik unvoni berildi.

KAFEDRA BUGUNGI KUNDA

Hozirda kafedra «Jarrohlik va urologiya kafedrasi» deb nomlanadi.

Kafedrada hozirda 2 nafar professor (Nishanov F.N., Shadmanov A.Q.), 8 ta dotsent (Bozorov N.E., Abdullajonov B.R., Rustamov U.M., Tursunov B.Q., Usmonov U.D., Otaqo‘ziyev A.Z., Nishonov M.F), katta o‘qituvchi Boboyev R.A., t.f.n. assistentlar Hamidov F.Sh., Sadikova D.I., Shodmonov M.A., assistentlar Egamov S.Sh., Xojimetov D.Sh., Hamrayev O.A., Ergashev B.A., Akbarov X.R. lar faoliyat olib bormoqdalar. Kafedrada 2 nafar mustaqil ilmiy izlanuvchilar, 16 nafar magistrlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar.

Magistr talabalari

Kafedra mudiri professor F.N. Nishonov va Respublika yetuk jarroxlari tomonida o’tkazilayotgan jarrohlar jamiyatidan lavhalar.

2020 yil kafedra dotsenti Abdullajonov B.R., V.Vohidov nomli RIXIATM da “Клинико-эпидемиологические аспекты и особенности лечебно-диагностической тактики при остром билиарном панкреатите» nomli doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli yakunladi.

Abdullajonov B.R. himoyasi

Diplom taqdirlash jarayoni

Ilmiy konsultant

V.Vohidov nomli RIXIATM «Portal gipertenziya, jigar transplanatsiyasi va pankreatoduodenal soha» bosh ilmiy hodimi t.fd. Babadjanov A.X.

PROFESSOR - O‘KITUVCHILAR TARKIBI

T/r	Professor-o‘qituvchilar FISH	Tug‘ilgan yili	Lavozimi	Stavkasi	Tugatgan OTMi nomi	OTMning tugatgan yili	Diplom bo‘yicha mutaxassisligi	Diplom bo‘yicha ixtisosligi	Ilmiy darajasi	Ilmiy unvoni	Qaysi yildan kafedrada ishlaydi	Oxirgi marta malaka oshirgan yili	Qaysi fandan dars beradi
Asosiy shtat													
1	Nishonov F.N.	1949	Kaf. professori	1,0	ADTI	1973	Davolash ishi	jarrox	t.f.d.	professor	1978	2019	jarroxlik
2	Bozorov N.E.	1967	Kaf.dotsent	1,0	ADTI	1993	Davolash ishi	jarrox	t.f.n.	dotsent	1999	2016	jarroxlik
3	Abdullajonov B.R.	1975	Kaf. Dotsenti	1,0	ADTI	1997	Davolash ishi	jarrox	t.f.d.	dotsent	2009	2016	jarroxlik
4	Xamidov F.SH.	1972	Kaf. ass-nti	1,0	ADTI	1995	Davolash ishi	jarrox	t.f.n.	assistent	2000	2018	jarroxlik
5	Tursunov B.K.	1974	Kaf. Dotsenti	0,5	ADTI	1997	Davolash ishi	jarrox	t.f.n.	dotsent	2014	2020	jarroxlik
6	Usmonov U.D.	1979	Kaf. Dotsent	1,0	ADTI	2003	Davolash ishi	jarrox-magistr	t.f.n.	dotsent	2007	2019	jarroxlik
7	Otakuziev A.Z.	1980	Kaf. Dotsent	1,0	ADTI	2005	Davolash ishi	jarrox-magistr	t.f.n. (PhD)	dotsent	2013	2018	jarroxlik
9	Nishanov M.F.	1987	Kaf. dotsent	1,0	ADTI	2009	Davolash ishi	jarrox-magistr	t.f.n. (PhD)	dotsent	2012	2018	Jarroxlik
8	Egamov S.SH.	1985	Kaf. Ass-nti	1,0	ADTI	2010	Davolash ishi	jarrox-magistr	-	assistent	2013	2020	Jarroxlik
10	Xojimetov D.SH.	1987	Kaf. Ass-nti	1,0	ADTI	2014	Davolash ishi	jarrox-magistr	-	assistent	2017	-	jarroxlik
11	Aliboev M.R.	1992	Urin kab-mud	0,5	ADTI	2017	Davolash ishi	jarrox-magistr talabas	-	Kabinet mudiri	2018	-	jarroxlik
12	Abilova D	1992	Labarant	1,0			Хамширалик иши		-	labarant	2012	-	

Kafedrada o‘qitilayotgan fanlar

Kafedrada davolash fakulteti va kasbiy ta’lim yo‘nalishining 6-kurs talabalari “Xirurgik kasalliklar” fani bo‘yicha tahsil oladilar.

Fakultet/ kurs	O‘quv yuklamasi xajmini auditoriya mashg‘ulotlari turiga ko‘ra kuyidagicha taqsimlangan (soatlarda)			
	Amaliy mashg‘ulot	Ma’ruza	Mustaqil ta’lim	**Jami**
Davolash 6-kurs	140	18	150	308
Kasbiy ta’lim 6-kurs	148	10	117	275

Urologiya fani bo‘yicha davolash fakulteti va kasbiy ta’lim yo‘nalishining 4- kurs talabalari taxsil oladilar.

Fakultet/ kurs	O‘quv yuklamasi hajmini auditoriya mashg‘ulotlari turiga ko‘ra kuyidagicha taqsimlangan (soatlarda)			
	Amaliy mashg‘ulot	Ma’ruza	Mustaqil ta’lim	**Jami**
Davolash/ 4-kurs	42	12	32	84
Davolash/ 4-kurs	36	0	20	56
Kasbiy ta’lim / 4-kurs	60	12	36	108

Urologiya

№	**F.I.Sh.**	**LAVOZIMI**
Urologiya		
1.	Rustamov U.A.	t.f.n., dotsent
2.	Boboyev R.A.	Katta o‘qituvchi
3.	Sodiqova D.I.	t.f.n., katta o‘qituvchi
4.	Hamrayev O.M.	Assistent
5.	Khuzhamberdiev U.E.	Assistent
6.	Shodmonov M.A	PhD, Assistent
7.	Abdulazizov S.A	Assistent

Kafedrada kompleks reja asosida quyidagi yo‘nalishlarda ilmiy ishlar olib borilmoqda:

- Jarrohlikda laparoskopik usullarni amaliyotga tadbiq etish (o‘t yullari jarroxligi va urgent Jarrohlik).
- Oshqozon va o‘n ikki barmok ichak yara kasalligini davolash va asoratlarini oldini olish, davolash natijalarini yaxshilash, tashrix usullarini mukammallashtirish.
- Kalkonsimon bez kasalliklarini davolash Jarrohlik usullarini mukammallashtirish, kasallik tarkalishini urganish va davolash natijalarini yaxshilash.
- Portal gupertenziya etioplogiyali qizilo’ngach varikoz venalaridan qon ketishida endoskopik gemostaz natijalarini yahshilash.
- Portal tizim xirurgik kasalliklarini Jarrohlik usulida va davolash natijalarini yaxshilash.
- Jigar va o‘t yo‘llari kasalliklarini Jarrohlik yuli bilan davolanish usullarini takomillashtirish, laporoskopik va endoskapik usullarni rivojlantirish, yaqin va uzoq natijalarni yaxshilash.

- Katta va gigant residiv ventral churralarda davolash usullarini takomillashtirish, asoratlarini oldini olish, davolash natijalarini yaxshilash.
- Jigar xirurgik kasalliklari va ularni asoratlarini kaminvaziv davolash usullarini takomillashtirish.
- Yo‘g‘on ichak va to‘g‘ri ichak, ingichka ichaklar kasalliklarini davolash usullarini takomillashtirish, asoratlarini oldini olish, davolash natijalarini yaxshilash.
- Ko‘krak qafasi kasalliklari davolash usullarini yaxshilash.
- Periferik qon tomir kasalliklari davolash usullarini takomillashtirish.

Kafedrada chop etilgan uslubiy qo‘llanma va uslubiy ko‘rsatmalar

№	F.I.Sh.	Uslubiy qo‘llanmani nomi va nashriyot nomi	Nashrga tavsiya etgan vazirlik yoki kengash nomi, sanasi, qaror raqami
1.	Nishanov M.F.	Vыbor xirurgicheskoy taktiki pri krovotochaщix piloroduodenalnыx yazvax.	Sog‘liqni saqlash vazirligi, Andijon davlat tibbiyot instituti
2.	Abdullajanov B.R.	O’tkir pankreatitlarda xirurgik davolash natijalarini yahshilash.	Sog‘liqni saqlash vazirligi Andijon davlat tibbiyot instituti
3.	Nishonov F.N. Nishanov M.F.	Xirurgicheskaya taktika i vibor metoda operatsii pri stenoziruyuщix piloroduodenalnыx yazvax	Sog‘liqni saqlash vazirligi, Andijon davlat tibbiyot instituti
4.	Nishanov M.F. Xojimetov D.	Sovremennыye aspektы xirurgicheskogo lecheniya probodnыx piloroduodenalnыx yazv	Sog‘liqni saqlash vazirligi, Andijon davlat tibbiyot instituti
	Назиров Ф.Г., Нишанов М.Ф	Способ хирургического лечения перфоративных язв желудка и ДПК	Министерство здравоохранения, Андижанский государственный медицинский институт РСНПМЦХ Ташкент 2019
	Нишанов М.Ф	Способ хирургического лечения при язвеной болезни желудка и ДПК, осложненной стенозом	Министерство здравоохранения, Андижанский государственный медицинский институт
	Нишанов Ф.Н. Нишанов М.Ф	Алгоритм хирургической тактики при кровотечениях з язв желудка и ДПК	Министерство здравоохранения, Андижанский государственный медицинский институт

Kafedradagi ixtiro, ratsionalizatorlik takliflar va amaliyotga tadbiq etilgan ishlar

№	F.I.Sh.	Ixtiro nomi
1	Nazыrov F.G., Nishanov M.F. Nishonov F.N., Abdullajonov B.R. Tursunov B.K.	Sposob rezeksii jeludka i nalojeniya gastroduodenoanastomoza
2	Nishonov F.N., Otakuziyev A.Z. Abdullajonov B.R., Nishanov M.F.	Sposob intraoperatsionnoy obrabotki exinokokkovыx kist
3	Nishanov M.F., Nishonov F.N., Egamov S.Sh., Rustamov J.A., Botirov J.A.	Programma lechebnoy taktiki vedeniya bolnыx s yazvennыmi iloroduodenalnыmi krovotecheniyami.
4	Nishanov M.F., Nishonov F.N., Abdullajonov B.R., Usmonov U.D., Karimov M.A., Egamov S.Sh., Xojimetov D.Sh.	Programma lechebnoy i diagnosticheskoy taktiki lecheniya perforativnыx yazv.

5	Nishanov M.F., Nishonov F.N., Bozorov N.E., Usmonov U.D., Otakuziyev A.Z., Karimov M.A., Egamov S.Sh.	Programma lechebnoy taktiki pri stenoziruyuщix piloroduodenalnыx yazv.
6	Nishonov F.N., Otakuziyev A.Z. Abdullajonov B.R., Nishanov M.F.	Qolqonsimon bez kasalliklarida kam jaroxatli tashrix usuli.
7	Нишанов М.Ф., Нишонов Ф.Н., Бозоров Н.Э., Усмонов У.Д., Отакузиев А.З., Каримов М.А., Эгамов С.Ш.,	Программа лечебной тактики при стенозирующих пилородуоденальных язв.
8	Нишонов Ф.Н., Нишанов М.Ф., Абдуллажонов Б.Р., Бозоров Н.Э., Хожиметов Д.Ш., Рахмонов Б.Б.	Способ антрумрезекции желудка и наложения терминолатерального косого гастродуоденоанастомоза
9	Нишонов Ф.Н., Нишанов М.Ф., Хожиметов Д.Ш	Способ назогастродуоденального зондирования и желудочного «лаважа»
10	Назиров Ф.Г., Гулямов О.М., Нишонов Ф.Н., Нишанов М.Ф., Джуманиезов Д.А.	Способ эндоскопического лечения ранних стадий раковых заболеваний желудка
11	Нишонов Ф.Н., Отакузиев А.З., Абдуллажонов Б.Р., Нишанов М.Ф.,	Малоинвазивный способ операции при заболеваниях щитовидной железы

Chet el imiy tahririyatlarida chop etilgan ilmiy maqolalar (Scopus)

№	Ф.И.О	Название методического пособия	Министерство рекомендуемое к публикации или название совета, число, и номер приказа
1.	Nazirov F. G., Nishanov M.F. Bozorov N. E., Egamov S. Sh., Khojimetov D. Sh.	Duodenal ulcer complicated by piloroduodenal stenosis: Technical and Tactical approaches of treatment	American journal of Medicine and Medical Sciences 2020, 10 (2): 96-101 (14.00.00, №2)
2.	Nishanov F. N., Nishanov M.F. Egamov S. Sh., Mamarasulov M., Robbidinov B. S..	Optimization of treatment tactics of bleeding gastric and duodenal ulcers	American journal of Medicine and Medical Sciences 2020, 10 (2): 106-111 (14.00.00, №2)
3.	Nazirov F.G., Nishonov F.N., Bozorov N.I., Khojimetov D.Sh.	Modern aspects of surgical treatment of pyloroduodenal ulcers	International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Special Issue 1, 2020. P.431-436. DOI: 10.37200/IJPR/V24SP1/PR201175
4.	Nishanov M.F. Khozhimetov D.Sh. Robbidinov B.S.	gical tactics and choice of pharmacotherapy for stenosing piloroduodenal ulcers	ence, research, development #25, Berlin 2020. P 69-72
	Назиров Ф.Г., Нишанов М.Ф	Способ хирургического лечения перфоративных язв желудка и ДПК	Министерство здравоохранения, Андижанский государственный медицинский институт РСНПМЦХ Ташкент 2019
	Нишанов М.Ф	Способ хирургического лечения при язвеной болезни желудка и ДПК, осложненной стенозом	Министерство здравоохранения, Андижанский государственный медицинский институт
	Нишанов Ф.Н. Нишанов М.Ф	Алгоритм хирургической тактики при кровотечениях з язв желудка и ДПК	Министерство здравоохранения, Андижанский государственный медицинский институт

Jarrohlik va urologiya kafedrasi talabalar ilmiy jamiyatini 2020 yilgi RESPUBLIKA JARROHLIK FAN OLIMPIADASI katnashchilari

F/I/SH/	Davolash fakulteti	Ilmiy raxbari	Egallagan o'rni
G'anijonov Jamoldin	6 kurs talabasi	Otaqo'ziv Axmadullo	1